

The influence of nonverbal means used in cartoons on young children

Gulrukh KHASANOVA¹

Samarkand State Institute of Foreign Languages

ARTICLE INFO

Article history:

Received June 2024

Received in revised form

10 July 2024

Accepted 25 July 2024

Available online

25 August 2024

Keywords:

non-verbal means,
cartoons,
gestures,
facial expressions,
communication,
demonization,
paralinguistics,
extralinguistics.

ABSTRACT

It is well-established that non-verbal communication is the primary means of interaction between preschool-aged children (up to 7 years old) and adults. Around the age of four to five, an additional situational-cognitive form of communication emerges, aimed at exploring the objective world. During this period, children also develop a more complex and advanced situational-personal form of communication, through which they acquire knowledge about the world of people and human relationships. This article discusses the significance of non-verbal communication in children's interactions, as well as the positive and negative effects of non-verbal cues used in cartoons on children's development.

2181-3701/© 2024 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-3701-vol2-iss2/S-pp215-221>

This is an open-access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Yosh bolalarga multfilmlarda qo'llaniladigan noverbal vositalarning ta'siri

ANNOTATSIYA

Kalit so'zlar:

noverbal vositalar,
multfilmlar,
imo-ishoralar,
mimika,
kommunikatsiya,
demonizatsiya,
paralingvistika,
ekstralingvistika.

Ma'lumki, noverbal muloqot maktabgacha yoshdagi (7 yoshgacha) bolalar bilan kattalar o'rtasidagi asosiy aloqa vositasi hisoblanadi. To'rt yoshdan besh yoshgacha obyektiv dunyoni o'rganishga qaratilgan muloqotning qo'shimcha vaziyatli-kognitiv shakli mavjud. Bog'cha yoshidagi bolalarda eng murakkab va yuqori (bu davr uchun) muloqotning qo'shimcha situatsion – shaxsiy shakli rivojlanadi, unda odamlar dunyosi va insoniy munosabatlar haqidagi bilimlar paydo bo'ladi. Ushbu maqolada noverbal vositalarning bolalar muloqotidagi ahamiyati hamda multfilmlarda qo'llaniladigan noverbal vositalarning bolalarga ijobiy va salbiy ta'siri bayon etilgan.

¹ Teacher, Department of English History and Grammar, Samarkand State Institute of Foreign Languages.

Влияние невербальных средств, используемых в мультфильмах, на маленьких детей

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

невербальные средства,
мультфильмы,
жесты,
мимика,
общение,
демонизация,
паралингвистика,
экстралингвистика.

Известно, что невербальное общение является основным средством взаимодействия между детьми дошкольного возраста (до 7 лет) и взрослыми. В возрасте от четырех до пяти лет появляется дополнительная ситуационно-познавательная форма общения, направленная на изучение окружающего мира. У детей дошкольного возраста развивается также более сложная и высшая для этого периода ситуативно-личностная форма общения, благодаря которой они получают знания о мире людей и человеческих отношениях. В данной статье рассматривается значение невербальных средств в общении детей, а также их положительное и отрицательное влияние, особенно в контексте использования невербальных средств в мультфильмах.

KIRISH

XXI asrda tilshunoslik yangi bosqichga qadam qo'ydi. Ilgari bu fan asosan tilning ichki muammolarini hal qilish bilan shug'ullangan bo'lsa, hozirda til va nutqda yuzaga keluvchi hodisalarni inson omiliga bog'lab talqin qilishga, tilning inson jamiyatini rivojlantirishdagi o'rniga, odamlarning xulq-atvoriga, xususan, muloqot bilan bog'liq muammolarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Kommunikatsiya tushunchasi muloqot, suhbat va boshqa iboralardan kengroq ma'noni anglatadi va shu sababdan har xil shakllarga ega [11]. Psixologiya, axborot uzatish hamda muloqot nazariyasi bilan shug'ullanuvchi zamonaviy tadqiqotchilar muloqotni ma'lum xabarni uzatish sifatida, ya'ni an'anaviy ravishda qabul qilingan fikrga nisbatan kengroq ma'noda "kommunikatsiya" bilan shaxslar orasidagi to'g'ridan-to'g'ri aloqaga nisbatan ekanligini ko'rib chiqmoqdalar. Xususan, kommunikatsiya deganda, ma'lumotning sifat jihatidan har xil vositalardan foydalangan holda, bir shaxs tomonidan boshqa shaxsga yoki bir qator shaxslarga yetkazilishi tushuniladi [1;151]. Ijtimoiy nuqtai nazardan kommunikatsiya guruh yoki tashkilot ichidagi, butun jamoa ichidagi alohida shaxslar o'rtasida axborot almashish jarayonini o'z ichiga oladi. Bunday turdagi kommunikatsiya, asosan, til yordamida amalga oshiriladi [12]. Muloqotning muhim tomonlaridan yana biri muloqot ishtirokchilarining bir-biriga ta'siridir. Muloqotning faolligi ham mana shunda ko'rinadi va muloqotga kirishuvchi shaxs o'zligini namoyon qila oladi. Bu esa muloqotning faoliyat turi ekanligini yana bir karra isbotlaydi [7;22].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI

Muloqotni tashkil qiladigan ikkita asosiy tarkibiy qism mavjud: verbal va noverbal. Zotan, amaldagi vositalarning tabiati bo'yicha ma'lumotni uzatishning turli usullarini ikki guruhga bo'lish mumkin: og'zaki (verbal) va og'zaki bo'lmagan (noverbal). Birinchi holda, xabar til birliklari orqali eshitish yoki vizual kanallar orqali uzatiladi. Ikkinchi holda, ma'lumot paralingvistik vositalar – "ovozli xabarga kiritilgan va semantik ma'lumotlarni uzatuvchi" tilga oid bo'lmagan birliklar yordamida uzatiladi. Kognitiv ma'lumotni uzatishda og'zaki vositalarning ahamiyati juda katta [1;151]. Tilshunoslikda insonning

aloqaga kirishida so'zlar ishtirokisiz, imo-ishora, qo'l, ko'z, qosh, tana harakati ishtirokiga nisbatan "noverbal vositalar", "ekstralingvistik vositalar", "paralingvistik vositalar" kabi turli terminlar qo'llaniladi. Tilshunoslikda **ekstralingvistika** deyilganda nutqqa pauzalar, shuningdek, insonning yig'i, yo'tal, kulgi, xo'rsinish kabi turli xil ruhiy holatlarining qo'shilishi tushuniladi [13]. **Paralingvistik ta'sir** – bu nutqning atrofidagi nutqni bezovchi, uni kuchaytiruvchi yoki susaytiruvchi omillar. Bunga nutqning baland yoki past tovushda ifodalanayotganligi, artikulyatsiya, tovushlar, to'xtashlar, duduqlanish, yo'tal, til bilan amalga oshiriladigan harakatlar, nidolar kiradi [14].

"Bolalar nutqi kommunikativ niyatning ifodalanishi, muloqot ishtirokchilarining e'tiborini jalb etishiga ko'ra o'ziga xosligi va serqirraligi bilan kattalar nutqidan ajralib turadi" [5;4]. Bolalarda nutqning shakllanishi masalasi tahlil etilgan ayrim ishlarda nutqda pragmatik xususiyatlarning namoyon bo'lishida nolisoniy omillarning ta'siri ham inobatga olingan [2].

Noverbal muloqot – bu faqat imo-ishoralar, yuz ifodalari va ko'z bilan aloqa qilish orqali amalga oshiriladigan muloqot. Noverbal vositalar bolalar muloqotining ilk shakllanishida muhim vositalar hisoblanib, verbal vositalarga qaraganda tezroq va samaraliroq ta'sir etadi. "Bolalar nutqi kommunikativ niyatning ifodalanishi, muloqot ishtirokchilarining e'tiborini jalb etishiga ko'ra o'ziga xosligi va serqirraligi bilan kattalar nutqidan ajralib turadi" [5;4]. Bolalarda nutqning shakllanishi masalasi tahlil etilgan ayrim ishlarda nutqda pragmatik xususiyatlarning namoyon bo'lishida nolisoniy omillarning ta'siri ham inobatga olingan [2].

Yosh bolalarning rivojlanishida noverbal aloqa vositalari katta o'rin egallaydi. Insonlar o'rtasidagi aloqa nafaqat nutq yordamida, balki yuz ifodalari, imo-ishoralar, ohang hamda muloqotning og'zaki bo'lmagan vositalari yordamida ham amalga oshiriladi. Noverbal muloqotning tarkibiy qismlari insonning kayfiyatini, ular istagan yoki kutgan narsalarini aniqlashga yordam beradi. Aslida, "og'zaki bo'lmagan aloqa" atamasi "tana tili" atamasiga bevosita mos kelmaydi, chunki birinchisi barcha paralingvistik hodisalarni, ya'ni nutqning ritmi, tempi, intonatsiya yoki nutq hajmi, pauzalar, kulgi va xo'rsinishlar kabi ekstralingvistik vositalarni o'z ichiga oladi. Biroq, ko'pincha, ularning yaqinligi tufayli, bu ikki atama bir-biri bilan muqobil tarzda ishlatiladi.

Og'zaki bo'lmagan aloqa, birinchi navbatda, hissiy holatlar yoki xatti-harakatlar kabi ijtimoiy ahamiyatga ega axborotni yetkazib beradi va uning asosiy vazifasi faktik axborotni uzatish va almashishdir. Odatda, so'zlar va jumlar bilan birgalikda biz og'zaki xabarni to'ldiradigan, uni o'zgartirishi yoki butunlay almashtirishi mumkin bo'lgan juda ko'p noaniq signallarni uzatamiz. Shu sababdan noverbal vositalar shunchaki lingvistik xabarlariga hamrohlik qiladi, deb taxmin qilish noto'g'ri bo'lardi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, noaniq xabarlar, masalan, munosabat va his-tuyg'ular, so'zlardan ko'ra o'zaro ta'sirlarda ancha ishonchli va samaralidir. Bu holat, ayniqsa, bolalarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Noverbal muloqot bolaning hissiy, ijtimoiy va aqliy rivojlanishi uchun juda muhim. Oddiy narsalar, xususan, quchoqlash, o'pish, jilmayish yoki qo'lini mahkam tutish bolaga ijobiy ta'sir etadi va o'ziga ishonchni shakllantiradi. Ijobiy noverbal harakatlar bilan birgalikda salbiy nolisoniy harakatlar ham mavjud bo'lib, bola ushbu harakatlarni ko'rib, salbiy xabarni qabul qiladi. Chunonchi, qoshni chimirish, qovoqni uyish va shu kabi salbiy ta'sir qiluvchi noverbal vositalar. Bolaning ijtimoiy muloqot doirasida o'sishi muhimdir, chunki bu uning dunyoqarashini, nutqini o'stiradi, boshqalar bilan yaxshi munosabatga kirishishiga yordam beradi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Bir qancha olimlar yuz ifodasi bolaga tez ta'sir etuvchi noverbal vositalardan biri ekanligini ta'kidlashadi. Xususan, bolalarning qoshni ko'tarishi sabablari bo'yicha tadqiqotlar o'tkazilgan [9;57-67]. Boshqa tadqiqotchilar bolalarda tabassurning ko'plab rag'batlantiruvchi tomonlarini aniqlashgan [8;1326-1344]. Shuningdek, P. Ekman kishilarning nima demoqchiligini oddiy noverbal vositalar orqali bilish mumkinligini ta'kidlagan, chunonchi, qoshni ko'tarish, ko'zni katta ochish kabilar [6;9].

Bugungi kunda zamonaviy texnologiyalar sharofati bilan bolalar uchun turli multfilmlar soni ko'payib bormoqda. Shu o'rinda bir savol tug'iladi: multfilmlar o'zi nima? Multfilm – bu odatda real bo'lmagan yoki yarim realistik uslubda chizilgan, ba'zan jonlantirilgan illyustratsiyaning eng keng tarqalgan bir turidir. Multfilmlar bolalar dunyoqarashi, psixologiyasi va muloqotini rivojlantiruvchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Masdudiyning ta'kidlashicha, “bolalar ta'limi mohiyatan bolalarning o'sishi va rivojlanishiga ko'maklashish yoki kognitiv, til, ijtimoiy, hissiy, jismoniy va harakatlantiruvchi jihatlarni o'z ichiga olgan bola shaxsining barcha tomonlarini rivojlantirishga urg'u berish maqsadida tashkil etilgan ta'limdir” [4;26]. Shunday ekan, bolalarning millati, dini va madaniyati uchun muvaffaqiyatli inson bo'lib yetishishlari uchun yaxshi ta'lim-tarbiya berish lozim. Muloqot bolalar uchun atrofdagi odamlar uzatayotgan axborotni tushunish uchun juda muhim boshlang'ich vositadir. Bolalar uchun yaxshi muloqot og'zaki muloqotdir. Og'zaki muloqot yordamida bolalar o'zlarining niyatlari, maqsadlari, fikrlari va his-tuyg'ularini boshqalarga etkazishlari mumkin. Kundalik hayotda insonni tildan ajratib bo'lmaydi. Til orqali odamlar bu yerdagi boshqa odamlar bilan til topisha oladilar [3]. Biroq, noverbal vositalardan foydalanish bolalarning muloqoti uchun ham foydalidir, chunki u bolalarning tasavvurini oshirishi mumkin. Bolalarda ijobiy qadriyatlarning shakllanishiga o'zlaridan va ota-onalar va atrof-muhit kabi boshqa odamlardan kelib chiqadigan stimullar ta'sir qilishi mumkin. Noverbal muloqotdan foydalanadigan multfilmlar tomoshabinlar, ayniqsa, yosh bolalarning tasavvur kuchini oshirishi mumkin. Hozirgi vaqtda og'zaki va og'zaki bo'lmagan tildan foydalanadigan multfilmlarni namoyish qiluvchi ko'plab ommaviy axborot vositalari mavjud, ulardan biri YouTube, televizor, TikTok va boshqa ommaviy axborot vositalaridir.

Hozirgi kunda turli yoshdagi bolalarga mo'ljallangan multfilmlar soni ko'payib bormoqda, bolalar multfilmlarni tamosha qilish orqali obyektiv borliq haqida tasavvurga ega bo'lishadi, shuningdek, ularning psixologiyasi, muloqoti va xulq-atvori rivojlanadi. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, multfilmlarda asosan verbal vositalarga qaraganda noverbal vositalar ko'proq qo'llaniladi. Chunonchi, hozirgi kunda bolalar tomonidan eng ko'p tomosha qilanayotgan multfilmlardan biri “Qizaloq va maymoq” bo'lib, ushbu multfilmda verbal vositalar juda kam ishlatilgan, asosan imo-shoralar, kinetik vositalar va turli yuz ifodalari orqali asosiy axborot tomoshabinlarga yetkazilgan. Ushbu multfilmda ayiq va qizcha o'rtasidagi muloqot asosan noverbal vositalar orqali amalga oshirilgan bo'lib, qahramonlarning ichki hissiyotlari ham so'zsiz ifodalangan (1-rasmga qarang).




1-rasm

Darhaqiqat, bolalarda multfilmlar orqali noverbal muloqot shakllanadi hamda so'zlovchining yetkazayotgan axborotga hissiy munosabatini to'g'ri anglashiga olib keladi. Bolalarda nafaqat nutiqiy muloqot shakllanadi, balki qahramonlarning noverbal harakatlari, xususan, qo'l harakatlari, mimikasi va ovoz toni orqali yovuz, mehribon, dono, ayyor insonlar haqida tushunchaga ega bo'lishadi ya'ni inson psixologiyasini tushunishni boshlashadi.

Biroq, o'sib kelayotgan yosh avlodning psixologiyasi va muloqot etikasiga salbiy ta'sir etuvchi multfilmlar ham keng tarqalgan bo'lib, bunday yomonlikni targ'ib qiluvchi animatsiyalar demonizatsiya deb ataladi. Ellard, Miller, Baumle va Olson demonizatsiya qilish tendentsiyasi, qisman, yovuz odamlarning stereotiplarini kuzatish va sadistik zavqlanish kabi ma'lum bir ishoraga duchor bo'lganda, yovuzlik sxemasining faollashuvidan kelib chiqishini ta'kidlashadi [10;350-362]. Bolalar multfilmlarida demonizatsiyani tushunish kamida uchta sababga ko'ra muhimdir. Birinchidan, tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, televizor va filmlardagi ba'zi modellashirilgan xatti-harakatlar bolalarda turli salbiy munosabat va xatti-harakatlarning shakllanishiga olib keladi, xususan, tajovuz va haqiqatni sayoz idrok etish kabilar. Demak, multfilmlardagi takroriy demonizatsiyalangan hatti-harakatlar bolalarda obyektiv borliqqa nisbatan agressiv munosabatni, g'ayrioddiy motivatsiyasini (masalan, mantiqsiz va g'alati motivatsiyalar), his-tuyg'ularni (masalan, qo'rquv, tashvish) va salbiy xatti-harakatlarni (masalan, qasos, passivlik) yuzaga keltiradi.

Ikkinchidan, multfilmlardagi qahramonlarning salbiy imo-ishoralari bolalarning og'zaki nutqi shakllanishiga ta'sir etishi mumkin, chunki bolalar beixtiyor o'sha noverbal harakatlarni takrorlashga harakat qilishadi, natijada so'zlarni talaffuz qilib qo'llash ular uchun qiyinchilik tug'dirishi mumkin (2-rasmga qarang).



2-rasm

Uchinchidan, ko'pchilik ommalashgan multfilmlar asosan g'arb mamlakatlarida ishlab chiqarilib, butun dunyo bo'yicha keng tarqalmoqda, ma'lumki, ushbu multfilmlardagi qahramonlar xatti-harakatlari va imo-ishoralari ham g'arbonsa xususiyatga ega bo'lib, sharq madaniyatiga mutlaqo mos kelmasligi mumkin (3-rasmga qarang). Natijada bunday multfilmlardagi qahramonlar harakatlari o'sib kelayotgan yosh avlodlarning o'z milliy qadriyatlari va madaniyatini to'g'ri anglamasligiga olib keladi hamda g'arb madaniyati ruhida ulg'ayishiga olib kelishi mumkin.



3-rasm

Yuqorida ta'kidlab o'tkanimizdek, salbiy noverbal harakatlar yosh avlodning yutuk inson bo'lib takomillashuviga to'sqinlik qiladi, bu holatlarning oldini olish uchun ota-onalar o'z farzandlarining qanday multfilm tamosha qilayotganliklarini nazorat qilishlari maqsadga muvofiq bo'lardi.

Shunday qilib, bolalarga multfilm qahramonlarning og'zaki nutqidan ko'ra ko'proq noverbal harakatlari ko'proq ta'sir qilishi mumkin, zero, multfilmlardagi noverbal harakatlar bolalarning obyektiv borliqni o'rganishi, dunyo qarashi va tasavvur olamining kengayishiga sabab bo'lishi bilan birgalikda, bolalarning og'zaki nutqining rivojlanishiga to'sqinlik qilishi, agressiv xatti-harakatlarning shakllanishi hamda o'z milliy qadriyatlari va madaniyatini tan olmasligiga ham olib kelishi mumkin. Bizningcha, farzandlarimizga o'z qadriyatlarimizni namoyon etuvchi milliy multfilmlarimizni tamosha qilishiga e'tibor qaratsak, multfilmlar sababli kelib chiqadigan har xil salbiy oqibatlarining oldini olgan bo'lardik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Хлыстова, Вероника Геннадьевна. Функционально-структурная и семантическая характеристика кинематических речений, отражающих коммуникативный аспект кинесики: На материале английского языка : диссертация ... кандидата филологических наук : 10.02.04. – Нижний Новгород, 2005. – С.151.
2. Детская прагматика или социально-психологический аспект развития речи // <http://matenok.ru/pragmatika.php>.
3. Fitriany, Sofiah. 2020. "Diversity and Tolerance Between Religions." Analysis: Journal of Islamic Studies 20 (2): 179–92. <https://doi.org/10.24042/ajsk.v20i2.5489>
4. Masdudi. 2019. "Characteristics of the Development of Early Childhood Education." CRIMINAL : Journal of Children's Education 1 (2): 1–26.
5. Qurbonova M. O'zbek bolalari nutqining pragmalingvistik aspekti. Monografiya. – Toshkent, 2018. – B.4.

6. Robert S. Fieldman. Development of nonverbal behaviours in children. – New York, 1982. – P. 9.
7. Safarov Sh., Toirova G., Nutqning etnosotsiopragmatik tahlili asoslari. O'quv qo'llanma. – Samarqand, SamDChTI nashri, 2007. – B.22.
8. Sroufe L.F. Wunsch J. The development of laughter in the first year of life. Child Development, 43, 1972. – Pp.1326-1344.
9. Wheldall K. Mittler P. Eyebrow raising, eye-widening and visual search in nursery school children. Journal of Child Psychology and Psychiatry, 17 (1), 1976. – Pp. 57-62.
10. Ellard JH, Miller CD, Baumle T, Olsen JM (2002) Just world processes in demonizing. In: Ross M, Miller DT (eds) The justice motive in everyday life. Cambridge University Press, Cambridge, UK, pp 350–362
11. <https://uz.denemetr.com/docs/134/index-234171.html>.
12. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-k/kommunikatsiya-uz>.
13. <http://hozir.org/zbekiston-respublikasi-olij-va-rta-mahsus-talim-vazirligi-tosh-v142.html?page=7>.
14. <https://aim.uz/referaty/59-psikhologiya/19679-mulo-otning-verbal-noverbal-paralingvistik-ta-sir-vositalari.html>.
15. Rajabov, M. (2019). THE BENEFITS AND STRATEGIES OF USING AUDIO MATERIALS IN ENGLISH CLASSES. In INTERNATIONAL SCIENTIFIC REVIEW OF HISTORY, CULTURAL STUDIES AND PHILOLOGY (pp. 17-21).